

ERKIN VOHIDOV IJODIDA SHE'R VA MUSIQA UYG'UNLIGI

Jo'rayeva Dilnoza

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov she'riyatida badiiy obraz va musiqiy ohang uyg'unligi yoritildi. Shoir qalamiga mansub qo'shiqqa aylangan qator she'rlarning ijrochilik talqini xususida fikr-mulohazalar bayon etildi.

Kalit so'zlar: *O'zbek adabiyoti, Erkin Vohidov, she'riyat, ijod, musiqiy uyg'unlik, qo'shiq, she'rlardagi mazmun, xonanda.*

Kirish. Badiiy so'z san'ati jamiyatning ma'naviy kamolotida, o'sib kelayotgan yosh avlodning yuksak salohiyatli shaxs bo'lib yetishishida muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda barcha sohalaridagi kabi adabiyot yo'nalishlarida ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 1-aprelda qabul qilingan "Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorda soha rivojiga qaratilgan islohotlar o'z aksini topdi. Xususan, hozirgi kunda respublikada 9 ta ijod maktablari faoliyat yuritadi. 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 33 taga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bu esa badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalariga mehr qo'ygan iqtidorli yoshlarni saralash va tarbiyalash, ularning iste'dodini rivojlantirish, kelajakda o'zbek adabiyoti va san'ati, milliy o'zligimiz, ona vatanimiz va xalqimizga sadoqatli yetuk ijodkorlarning yangi avlodini kamol toptirishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. (1) ma'lumki, millatimiz ma'naviyatining yuksalishida o'zbek shoir va yozuvchilarining o'rni beqiyos. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning betakror ijodiy merosi esa o'zbek adabiyotida o'z salmog'i va zalvorli yuki bilan ajralib turadi.

Asosiy qism

Erkin Vohidov serqirra ijod sohibi. U qaysi janrda qalam tebratmasin xalqimiz uni chin dildan sevib mutolaa qiladi. Shoir yaratgan har bir ijod mahsuliga qalb qo‘rini singdiradi, shaklan kichik bo‘lgan she‘rlarida ham ulkan ma‘noni mujassam etadi. Uning she‘rlarida faylasuflik bilan odmilik, nafrat va muhabbat, kurashuvchanlik, jasorat va nafosat uyg‘unlashgan.

Zabardast shoirning qator she‘rlari taniqli honandalar tomonidan qo‘shiq qilib kuylangan. ”O‘zbekim” qasidasi, ”Do‘st bilan obod uying”, ”Yoshligimiz” nomli she‘rlari O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev tomonidan maromiga yetkazib ijro etilgan. Bundan tashqari, Erkin Vohidovning:

Barcha shodlik senga bo‘lsin,

Bor sitam zorlik menga.

Barcha dildorlik senga-yu,

Barcha xushtorlik menga.

satrlari bilan boshlanuvchi she‘ri taniqli o‘zbek honandalari tomonidan kuylanib, ko‘pchilik qalbidan joy olgan.

2020-yilning oktyabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilganligining 75 yilligiga bag‘ishlangan ”UN75” onlayn-tadbirda shoir Erkin Vohidovning ”Inson” qasidasi arab, ingliz, italyan, qozoq, rus, tojik, turk va o‘zbek tillarida yangradi.(2) Qo‘shiqni yaratish davlatimiz rahbarining Marg‘ilonda O‘zbekiston qahramoni, taniqli shoir Erkin Vohidov muzeyi va ijod maktabining ochilish marosimida Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovga kutilmagan bir taklifidan boshlandi. O‘sha kuni yurtboshimiz ”Ulug‘ shoirimizning ”Inson” qasidasi benazir asar. Uni bir qancha tillarga tarjima qilib, kuyga solib, qo‘shiq qilib aytinglar. Hozir ham inson g‘oyasi qanchalar noyob va aziz ekanligini odamlar, yoshlar bilsin” – deya fikr bildirgan edi.

”Inson” qasidasi matniga asoslangan qo‘shiq va uning videoklipi homiylar mablag‘i asosida yaratildi va uning davomiyligi to‘qqiz daqiqani tashkil etadi. Qo‘shiqni Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Dilafruz Rustamova, Oleg Gazmanov, Omirqul Ayniyazov, Zafar Abdualimov, Rafet el-Roman, Ahmad Al-Xuraybiy, Alessandro Safina kabi dunyoga mashhur san’atkorlar ijro etdilar.(3)

Erkin Vohidovning yana ko‘plab she‘rlariga o‘zbek ijodkorlari qo‘shiq bastalagan. Jumladan, Yulduz Usmonovanning ”Yursin karvonlar” ashulasi naqorat qismida shoirning kamtarlik haqidagi she‘ri yangraydi. Shu bilan bir qatorda, ”O‘n sakkizga kirmagan kim bor” taronasini O‘zbekiston xalq hofizi Fahriddin Umarov ijro etgan. ”O‘rtada begona yo‘q” ”Uyg‘otmagil”, ”Sevgi” nomli qo‘shiqlarni ham Sherali Jo‘rayev, Ravshan Zokirov hamda Bunyodbek Saidov kabi honandalar talqinida tinglashimiz mumkin.

Badiiy adabiyot inson kechinmalarini ifodalab, uning ruhan va aqlan kamol topishida asosiy omildir. Muayyan bir millat, ijodkor maqsadini amalga oshirish, ijtimoiy voqelikni aks ettirish hamda millat tarqqiyotida, ayniqsa, so‘z san’ati bo‘lmish she‘riyat katta kuchga ega. She‘r va musiqa uyg‘unligida yaratilgan san’at asari esa inson his-tuyg‘ularini, atrofdagi voqea-hodisalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu sababdan ma’noli, yaxshi qo‘shiq va ashulalar orqali inson taskin topadi, mulohaza qiladi va estetik zavq oladi. O‘zbek she‘riyatida Erkin Vohidov kabi zabardast shoirlarning boy adabiy merosi doimo o‘rganiladi, asarlari sevib o‘qiladi va she‘rlari qo‘shiqqa aylanib, qalbimizda uzoq yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munajat Mo‘minova ”Inson qasidasini 8 tilda qo‘shiq qilish g‘oyasi qanday paydo bo‘ldi?”. (2020-yil 23-oktabr)
2. ”Erkin Vohidov”. *Ziyouz*. (2012-yil 11-fevral)
3. ”Vohidov, Erkin” O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent (2000-2005).
4. Bobur Nusratov. Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida poetik obrazlar talqini. Ájiniyaz Qosıbay ulınıń tuwılǵanına 200 jıl tolıw múnásibetine baǵıshlangan «Ájiniyaz Qosıbay ulınıń ádebiy miyrasın úyreniw». 2024. 74-76.
5. Turdiyeva, Y. Individuality of the literary style (based on the novel “People in the heat” by Luqmon Borikhan). *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(12), 17-18.

6. Sh, M. (2019). A. Artistic psychologizm in uzbek literature of the twentieth century. *Omega science.–Kirov*. M Sh - Omega science.–Kirov, 2019
7. Ibragimova, D. Isajon Sultonning “Robiya Balxiy” qissasida tarixga yondashuv tamoyillari. *filologiya va pedagogika*, 78.
8. Tursunaliyeva, M. (2025). Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asarida hamd matnidagi so’zlar jilvasi. «*acta nuuz*», 1(1.7), 310-312.
9. Eshonqulova, S. (2020). Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi tili va undagi sinonimlik hodisasi. *Интернаука*, 18(147 часть 3), 57.
10. Mirzaevich, I. G. (2021). Idioethnic Interpretation Of Uzbek Phraseology (on example of Uzbek, Kazakh and Karakalpak languages). *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 10(6), 80-87.
11. Xujaev, M. I. (2020). EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5| Issue: 8| August 2020-Peer Reviewed Journal.
12. Xujaev, M. I. (2015). Некоторые особенности этических взглядов Ахмет-Заки Validova. *Credo new*, (2-2), 3.